E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

MA’RIFAT VA MUHABBAT BO’STONI

G.N.Bozorova, G.A.Ulug’berdiyeva

NDKTU akademik litseyi o`qituvchilari

Annotatsia

This article is about the role of mysticism and sufism which were appeared in VIII century. There were so many members of Sufism and Mysticism after our prophet: Hasan Basriy, Uvays Qaraniy who was called “Star of Yaman”, Hakim at-Termiziy who was respected as “Hakim ul-Avliyo”, Ahmad Yassaviy to name but a few.

Kalit so’zlar

Ikki jahon quyoshi, yaman yulduzi, Uvays Qaraniy, Hasan Basriy, “Hakim-ul-avliyo”, “Tazkirat ul-avliyo”.

Bugungi kunda milliy qadriyatlarimizni har tomonlama mukammal o’rganish borasida katta yutuqlar qo’lga kiritilib, islomiy bilimlar keng xalq ommasiga yetkazilmoqda. Asrlar davomida xalqimiz ma’naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan, insonning ruhiy-axloqiy poklanishiga, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borishiga yetaklovchi ta’limot-tasavvufdir. Shu sababdan tasavvuf chuqur insonparvarlik g’oyalari bilan bog’liq bo’lib, haqiqat talabida yurgan kishilar qalbiga yo’l topdi, odamlarning poklik, abadiy hayot, ko’ngil hurriyati haqidagi orzularini ifodalab keldi. Xalqimiz so’fiy-darveshlarga hurmat-ehtirom etish orqali Allohga bo’lgan e’tiqodlarini izhor eta bilganlar. Bugungi kungacha, qarangki, so’fiy, tasavvufiy shayxlarning karomatlari, so’zlari yuksak axloq hamda ilohiy muqaddaslik namunasi sifatida qabul qilingan. Ular haqidagi xotiralar, rivoyat va hikoyatlarni o’rganish zamirida umumlashtiriladi.

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta’limot bo’lib, islom olamida VIII asrning o’rtalarida paydo bo’lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko’rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrati Muhammad (s.a.v) vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo’linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon zamonida boylikka ruju, qimmatbaho tuhfalar bilan qarindosh-urug’lar, yaqin do’st-birodarlarni siylash rasm bo’ladi. Umaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdaba bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to’plash avj oldi. Ya’ni diniy mashg’ulotlar, xudo yo’lidagi toat-ibodat o’rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Kufa, Bag’dod, Basra shaharlarida tarkidunyo qilgan zohidlar ko’p edi, aytish kerakki, ularning obro’-e’tibori ham xalq orasida katta bo’lgan. Chunonchi, Uvays Qaraniy, Hasan Basriy kabi yirik so’fiylar aslida zohid kishilar edilar, shuning uchun bu zotlarning nomi shayxlar va so’fiylar haqidagi tazkiralarida zohid sifatida tilga olinadi. Shuni nazarda tutib, atoqli olim Y.E.Bertels qayd etgan edi: “Tasavvuf adabiyotini o’rganmasdan turib, o’rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo’lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo’lmasdan Sharqning o’zini ham anglash qiyin” . Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarida yozilishicha Shayx Abusaid Abulxayrdan “Tasavvuf nima?” deb so’rashganida , u “Boshingda ne bo’lsa, chiqarib tashlash , qo’lingda neki bor, qo’ldan berish va boshqalardan senga nima kelsa, ranjimaslik”, degan ekan.

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

Tasavvuf tarixida so'fiylar hayoti va faoliyatida ajabtovur , favqulodda hodisalar, nogahoniy ta'sir natijasida yangi hayot tarzini boshlash holatlari ko'p uchraydi. O'tmishda tasavvuf tarixiga bag'ishlangan barcha tazkiralarda "ikki jahon quyoshi" deya ehtirom bilan tilga olingan Uvays Qaraniyni "Yaman yulduzi" deb ham atashgan. U tug'ma ruhiy iqtidor sohibi bo'lgan. "Uvays" deyilishiga sabab, u hech bir hojat va vositasiz Payg'ambar (s.a.v) ruhidan tarbiya topgan. Ular zohiran bir-birini ko'rmadilar, ammo botindan fayz-u futuh topdilar.Bu hammaga ham nasib etmaydigan maqomdir. Rasulloh (s.a.v) Uhud tog'idagi jangda tishlaridan biridan ajraganlar. Bundan voqif bo''lgan Uvays Qaraniy Muhammad (s.a.v) ga bo'lgan yuksak ehtiromi yuzasidan, u zotga dushmanlar yetkazgan sitamni o'zida sinash maqsadida avval bir tishini, so'ngra shubhaga o'rin qolmasligi uchun barcha tishlarini sug'urib tashlagan. .

Uvays Qaraniy "Salomatlik-tanholikdir", yoki "Jamoadan ajralishdan saqlaning , chunki o'zingiz sezmagan holda diningizdan ajrab qolasiz va qiyomat kuni do'zaxga kirasiz" kabi fikrlar bilan o'z qarashlarini bayon etgan.

Mashoyixlarimizdan sanalmish Hakim at-Termiziyning 400dan ziyod asar yozganligi qayd etilgan. Go'daklik chog'idanoq o'yin o'ynashni o'rnini kitob mutolaa qilish mahg'uloti egallagan yosh Termiziy hadis ilmini o'rganishga kirishadi va 27 yoshida Makkani ziyorat qiladi, hikmat va farosat bobida qilni qirq yorgani uchun uni "Hakim-ul-avliyo" deb ulug'lashgan. U yashagan davrda valiylik dolzarb masala bo'lib, tasavvufda markaziy o'rinni egallagan.Termiziy o'z hikmatlarida turli illatlarni fosh etib, nafsning yomon ekanligini ta'kidlab, "Odamlarning azizrog'i o'z nafsini xor qilgan kishidir", illatlar ichida o'zini katta tutish, kekkayish eng yomon ekanligini ta'kidlab, " Insondagi illatlarning eng yomoni kibrdir" deya yozib qoldirgan. .

Turkiy tasavvuf she'riyatining asoschisi sifatida dunyoga mashhur Ahmad Yassaviy ijodiyoti o'zbek adabiyoti va tilining juda muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Adabiyotimiz tarixida nodonlik atalmish ofatdan Ahmad Yassaviychalik ranj chekmagan kishi bo'lmasa kerak.Nodonlikning o'ziga xos yozvuzlik, aql jallodi, xalqning kulfati ekanligini ta'kidlab, Yassaviy "Duo qiling nodonlarni yuzin ko'rmay" deya yolvorgan va o'nlab hikmatlarini nodonlikdan shikoyat mazmunida yaratgan.

Duo qiling nodonlarning yuzin ko'rmay,

Haq taolo rafiq bo'lsa birdam turmay.

Bemor bo'lsa nodonlarni holing so'rmay,

Nodonlardin yuz ming jafo ko'rdim mano. .

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham hikmat ruhi –nasihat ruhi doim kuchli. Lekin shoirning deyarli barcha pand-u nasihat so'zlari bitta maqsadga qaratilgan. Ahmad Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy ildizlari to'g'ridan to'g'ri "Qur'on" g'oyalari va Muhammad payg'ambar hadislariga borib bog'lanadi.Ahmad Yassaviy – axloqiy poklik va yaxlitlik uchun qayg'urgan donishmand.Yassaviy imon ovozini tinglashga, yomonlik bilan yaxshilikni farqlashga, halol nima, harom nima-buni xatosiz bilishga, oshiqlikda yolg'on da'volarga berilmaslikka, to'grilikni yoqlab, egrilikdan boyin tovlashga o'rgatadi.U nodonlik, bag'ritoshlik, pinhona yovuzliklardan ko'p noliydi.Mana shular-Yassaviy hikmatlarining mantig'i.

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

Ahmad Yassaviyda shunday bayt bor:

Oshiqlarning ko'z yoshidur bog-u bo'ston

Bulbullari sayrar anda hazor doston.

Ahmad Yassaviyning she'riyati Haq ishqida yongan, ko'ngli Azobga to'la, azoblarida o'zligiga qaytguvchi, o'zligiga qaytgan sayin nuqsonsiz va oliy mavjudlikka intiladigan chinakam oshiqlarning ko'zyoshlaridan yaralgan bog'u-bo'stondir.Ma'rifat, muhabbat bo'stonidir.

Ulug' so'fiy va shoir Fariduddin Attor o'zining "Tazkirat ul-avliyo" asari muqaddimasida quyidagilarni qayd etadi: "Avliyolarning so'zi kishi qalbining malhami va ruhining quvvatidir." Demak, kimki avliyo so'zini diliga jo etsa, u Qur'on va Hadislar mag'ziga eshik ochadi, o'zining holati, axloqini, qilayotgan ishlarining yaxshi-yomonligini o'ylaydigan bo'lib qoladi, hayot, odamiylik, o'lim, oxirat xususida mulohaza yuritib, ichki olamini poklashga kirishadi. Ko'hna Sharq mashoyixlari bilan taniqli.Butun umrini Olloh yo'liga tikib, halollikka, ilmu ma'rifatga hidoyat etgan zotlar va ularning bizga qoldirgan merosi abadul-abad ruhiyatimizga ma'rifat, nur, tanamizga quvvat baxsh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Haqqul, Ibrohim.Tasavvuf va she'riyat.-T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

2.Alisher Navoiy, Nasoyim-ul-muhabbat.

3.Hamidjon Homidiy ."Tasavvuf :Qaraniydan Rushdiygacha"."Yangi asr avlodi", 2021-yil.

WORDLY KNOWLEDGE